



MATEMATIK

$$\sqrt{a^2}$$

$$a^2$$

2
0
7

SHOW



**7-MAKTAB MATEMATIKA
VA INFORMATIKA FANI
O'QITUVCHISI
VAHOBOV ADHAMJON
TAYYORLADI**

Assalomu alaykum hurmatli shou ishtirokchilari hamda aziz tomoshabinlar. Sizlarni bugungi **“Matematik shou”** mizga hush kelibsiz deb qolaman. Endi men ishtirokchilarni davraga chorlab qolaman. Marhamat qiilib kutib olamiz.

8-“A” sinf ishtirokchilarini davraga taklif qilaman. Marhamat qilib o'z joyingizni egallab olsalaring. Keyingi raqib jamoamiz

8-“B” sinf jamoasini davraga taklif qilamiz. Sizlar ham o'z joyinizni egallab olsalaring.

O'yin sharti bilan sizlarni tanishtirib chiqaman. Shoumiz shundan iboratki, 5 ta shart bo'yicha sizlarni bilimingiz sinab ko'riladi. Har bir shart 20 balldan iborat.

1-shart “Tezkor savollar”

1-guruhdan boshlaymiz. Davrada jimlik saqlaymiz. Tezkor savolimizga guruhlar birgalikda javob aytishadi. Har bir to'g'ri javob uchun 2 ball berib boriladi.

1. 5 ni 5 ga ko'paytirib so'ng 5 ni ayrib ishyana 5 ga ko'paytirsak necha hosil bo'ladi? (100)
2. Qanday qilib 6 ni to'qqizga aylantirish mumkin? (6 ga 3 ni qo'shib)
3. 500 ta gugurt cho'pida nechta uchlari bor? (1 000 ta)
4. 100 ni yarimga bo'lsak nechi hosil bo'ladi? (200)
5. 123 000 sonida nechta raqam bor? (4 ta)
6. 15 ning kvadrati nechi? (225)
7. Algebra faniga kim asos slogan? (al-Xorazmiy)
8. 1 ta g'isht 2 kg chiqsa, 1.5 ta g'ish necha kg? (3 kg)
9. 2 dan katta 3 dan kichik butun son bormi? (Yo'q)
10. Bitta odamda ikkita qo'l bo'lsa, 5.5 ta odamda nechta qo'l bo'ladi? (5.5 ta odam yo'q)

Savollar berilib bo'ldi. Sizlar berilgan 10 ta savolga

_____ ta to'g'ri javob berdingiz. Endi keying guruh bilan

o'yinimizni davom ettiramiz. Guruh tayyormi? Unday bo'lsa boshladik.

1. 6 ni 6 ga ko'paytirib so'ng 6 ni ayirib yana 6 ga ko'paytirsak necha hosil bo'ladi? (180)
2. Qanday qilib 1 dan 2 ni ayirish mumkin? (Qoida bo'yicha, kattasidan kichigini ayirib, kattasining ishorasi qo'yiladi.)
3. 600 ta qog'ozdan nechta samalyot yasash mumkin? (Qog'ozdan samalyot yasab bo'lmaydi. Qog'ozdan o'yinchoq samalyot yasab bo'ladi holos.)
4. 50 ni yarimga bo'lsak nechi hosil bo'ladi? (100)
5. 322 000 sonida nechta raqam bor? (3 ta)
6. 676 ni ildizdan chiqaring? (26)
7. Matematika terminini fanga kim kiritgan? (Pifagor)
8. 3 ta qovun 2 kg chirsasida 30 qovun necha kg chiqadi? (20 kg)
9. 5 dan katta 7 dan kichik butun son bormi? (ha 6)
10. Bitta odamda nechta barmoq bor? (10 ta)

Savollar tugadi sizlar 10 ta savoldan _____ ta javob berdilaring.

Endi keying sharni boshlaymiz.

2-shart "Raqamni topish".

Bu shartda sizlarga berilgan blankada 1 dan 70 gacha sonlar bo'lishi kerak, lekin bularni ichidan 21 tasi tushurib qoldirilgan. Sizlar buni 2 daqiqa mobaynidan topib yozib borasiz. Xatolarni tuzatishga yo'l qo'yilmaydi. Hamma raqamlar to'g'ri topilsa 20 ball,

1 ta xato uchun 18 ball, 2 ta xato uchun 15 ball, 3-5 ta xato uchun 10 ball beriladi. 10 dan ortiq xatoga ball berilmaydi. Tayyormisizlar? Boshladik.

38	22	46	10	62	65	19
12	28	47	29	31	39	42
67	3	34	20	44	1	60
25	61	26	41	40	51	35
49	21	70	5	68	30	15
37	58	8	43	11	56	66
18	17	36	69	59	63	27

Vaqt tugadi endi ishlarni tekshiramiz. Bu yerda quyidagi sonlar tushirib qoldirilgan edi:

2, 4, 6, 7, 9, 13, 14, 16, 23, 24, 32, 33, 45, 48, 50, 52, 53, 54, 55, 57, 64.

Mana endi 2-shartimiz nihoyasiga yetdi.

3-shart “Ko’z bog’lash”.

Ishtirokchilarga kerakli qurollar beriladi va ularga aytilgan gaplarni qog’ozda aks ettirishadi. Bunda ham har ikkala guruh baravariga ishtirok etishadi. Har bir chizilgan shakl uchun 20 ball beriladi. Ozgina xatolar kechiriladi. Qo’pol xatolarga ball berilmaydi. Qani boshladik.

1. Aylana chizing.
2. Chizgan aylana ichiga 5 sonini yozing.
3. Uni yoniga besh burchak chizing
4. Shu beshburchak ichiga 8 sonini yozing
5. Boshqa joyga esa Uycha chizing.

3-shartimiz ham o’z nihoyasiga yetdi. Guruhlarni ballaymiz.

4-shart “To’g’ri tanla”

Shart shundayki, berilgan raqamlar orasiga ishoralarni shunday qo'yinki natija to'g'ri hosil bo'lsin. Bunda qavs, ildiz yoki modillardan foydalansa bo'ladi. Hohlasangiz raqamlarni birlashtiring. Bu shartga 5 daqiqa vaqt beriladi. 6-9 tenglik to'g'ri bajarilsa 20 ball, 5 ta tenglik bajarilsa 15 ball, 4 ta tenglik uchun 10 ball, qolgan hollarga 5 ball beriladi. Shart tushinarli bo'lsa o'yinni boshladik.

1										=1
1	2									=1
1	2	3								=1
1	2	3	4							=1
1	2	3	4	5						=1
1	2	3	4	5	6					=1
1	2	3	4	5	6	7				=1
1	2	3	4	5	6	7	8			=1
1	2	3	4	5	6	7	8	9		=1

Bu shartni ishtirokchilar ishgunga qadar men tomoshabinlar bilan yoshini topish o'yinini o'ynab turaman. Kimning yoshini topib beray.

1. Yoshingizni 10 ga ko'paytiring.
2. 9 ni istalgan bir xonali songa ko'paytiring.
3. Endi ularni ayirmasini toping.
4. Nechi chiqdi. Shuni menga aytsangiz men sizga yoshingizni aytib beraman.

Masalan: Mening yoshim 30 da. Uni 10 ga ko'paytirsam 300 hosil bo'ladi. 9 ni 7 a ko'paytirsam 63 hosil bo'ladi. Ikkalasining ayirmasi esa $300-63=237$ hoisil bo'ladi. Natija 237 ni aytsam bo'ldi.

Mening yoshim 30 da ekanligini eshitaman.

4-shartimiz ham o'z nihoyasiga etdi.

5-shart "Tomoshabinlar bilan o'yin".


Bu shart shundayki tomoshabinlar tomonidan bir savol beriladi. Guruhlar 1 daqiqa ichida javobni aytishadi. Har bir guruhga alohida savol beriladi. Marhamat kimning savoli bo'lsa 1-guruh ishtirokchilariga beramiz.

Bu o'yin uchun 20 bal beriladi. Endi sizlarni ballaringiz e'lon qilinadi. Marhamat qilib so'zni hakamlarga beramiz. Hakamlar ballarni e'lon qiladi. Bu o'yinda g'olib guruh ishtirokchilari 7-“B” sinf ishtirokchilari bilan bellashadi.

Hammangizga o'z minnaddorchiliimni bildirib qolaman. Keyingi o'yinda ko'rishguncha hayr deb qolaman.

7-MAKTAB MATEMATIKA
VA INFORMATIKA FANI
O'QITUVCHISI
VAHOBOV ADXAMJON
TAYYORLADI.

<http://adxamjon.zn.uz/>



MATEMATIK

$$\sqrt{a^2} = a^2$$

202

SHOW

